

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
ТОМ 4, НОМЕР 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»
VOLUME 4, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-5>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1	Svetlana Safarova Satimovna. XORAZM VOHASINING QUYI VOLGA VA JANUBIY SIBIR HUDUDLARI BILAN MADANIY ALOQALARINING TARIXIY MANBALARDA VA TADQIQOTLARDA AKS ETISHI.....	7
2	Yaqubova Shahribonu Davron qizi. HUQUQIY HUJJATLAR TARJIMASIDA ANIQLIK MASALASI.....	13
3	Matyakubov Hakimboy Xamidjonovich. OLAMNING ONOMASTIK MANZARASINI TADQIQ ETISHDA MAKON NOMLARINING STRATIGRAFIK (QATLAMLANISH) TABIATINI ANGLASH.....	15
4	Jabborova Dilnavoz Allaberganovna. MUNIS IJODIDA AN’ANAVIYLIK VA NOVATORLIK.....	19
5	Ёриева Зарифа Хамраевна. ЖОН СТЕЙНБЕК ВА УЛУҒБЕК ҲАМДАМ НАСРИДА ЗАМОН-МАКОН МОДЕЛИ ВА ШАХС РУҲИЯТИНИНГ КЕНГҚАМРОВЛИ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ.....	23
6	Narziyeva Inobat Zoirovna. O‘ZBEK ADABIYOTIDA KICHIK YOSHDAGI BOLALAR OBRAZINING PSIXOLOGIK TALQINI.....	27
7	Karimova Shaxnoza Karimovna. Atoyeva Zarinabonu Yigitali qizi. MODERNISTIK SHE’RIYATDA ANAFORANING BADIY VAZIFALARI.....	31
8	Алламуратова Гулсанем Жалгасбаевна. ЯДЕРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ИДИОСТИЛЯ: КОРПУСНЫЙ АНАЛИЗ ПОЭТИКИ БАЛЬМОНТА И БРЮСОВА.....	36
9	Шамсутдинова Галия Шамилевна. КЛАССИФИКАЦИЯ НАЗВАНИЙ ЖИЛИЩ В ХОРЕЗМЕ.....	42
10	Yakubova Matluba Tajibayevna. NEMIS - O‘ZBEK MAQOLLARINING TARJIMA MUAMMOLARI VA EKVALENTLIK MASALASI.....	46

TARIX

1	Babadjanov B. “O‘ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARINING GENEALOGIYASI VA SIYOSIY-G‘OYAVIY ASOSLARI”.....	51
2	Yunusxo‘jayev Habibulla Zafar o‘g‘li XIVA XONLIGI QOZILIK HUJJATLARIDA YER OLDI-SOTDISI VA VAQF IJARA MUNOSABATLARINING HUQUQIY RASMIYLASHTIRILISHI.....	55
3	Atayeva Dilfuza Pulatovna. O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASI ORQALI XOTIN-QIZLARNING IQTISODIY FAOLIGINI OSHIRISH.....	57
4	Babadjanov B. “O‘ZBEKISTON “MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASINING SIYOSIY STRATEGIYASI”.....	61
5	Yusupov Axmedjon Shonazarovich. OROLBO‘YI ILK SAK QABILALARINING ETNO-MADANIY GENEZISI YUZASIDAN BA‘ZI MULOHAZALAR.....	65
6	Otaxonova Intizor Norimboy qizi. URGANCH DAVLAT UNIVERSITETIDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI.....	71
7	Nurmetov Ismoil Alimbayevich. O‘ZBEKISTONDA TABIIY HUDUDLAR MUHOFAZASI.....	75
8	Садиков. А. И. ҚОРАҚАЛПОҚ ХУДУДЛАРИДА АНЪАНАВИЙ МАКТАБ ВА МАДРАСАЛАР ФАОЛИЯТИ (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	82
9	Саидов Шавкат Жумабаевич. ХХСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....	88
10	Ermanov Alisher Bekmuratovich. TOTALITAR TUZUM DAVRIDA QORAQALPOQ OXUNLARI FAOLIYATI.....	94

PEDAGOGIKA

- 1 **Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna.** PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI..... 97
- 2 **Radjapova Feruza Abdullayevna.** ADAPTIV SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK TASNIFI..... 101
- 3 **Egamova Anbarjon Atanazarovna.** KONSTRUKTIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSIYA VA EMOTSIONAL-INTELLEKTUAL OMILLARNING O'RNI..... 106
- 4 **Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li.** AKADEMIK ERKINLIK SHAROITIDA BO'LAJAK PEDAGOG KADRLARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARI (XORIJIIY UNIVERSITETLAR TAJRIBASI MISOLIDA).... 111
- 5 **Atajanov Adilbek Yuldashevich.** OTM PEDAGOG XODIMLARINING ISH O'RNIDAGI FUNKSIONAL TAYYORGARLIGINI OPTIMALLASHTIRISHDA WFSIP PEDAGOGIK MODELINING NAZORATLI SINOV NATIJALARI..... 117
- 6 **Kurbonboyev Xudoyshukur Maqsudboy o'g'li.** OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI KROSSFIT MASHG'ULOTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI: DOLZARBLIK, O'RGANILGANLIK DARAJASI VA PEDAGOGIK YECHIMLAR..... 125


PSIXOLOGIYA

- 1 **Kalandarova Madina Baxadirovna.** TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDA AYOLLARNING ONALIKKA MOSLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR..... 133
- 2 **Xudoyberganov Doniyorbek Yangiboy o'g'li.** ZAMONAVIY TALABALAR HAYOTIY STRATEGIYALARI VA COPING-XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK..... 138

IQTISOD

- 1 **Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna. Raximov G'anisher Alisher o'g'li.** SOLIQQA SOLISH TIZIMLARINING XALQARO TASNIFI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI..... 143
- 2 **Maxmudov Jasurbek Ergashevich.** INVESTITSION SALOHIYAT TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNING HUDUDIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI..... 147
- 3 **Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi. Zakirova Gulnoza Qudratovna.** O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDA YOSHLAR BANDLIGI: STRUKTURAVIY NOMUTANOSIBLIKLAR VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYALARI..... 153
- 4 **Zaripov Xurshid Zakir o'g'li. Ruzmetova Gulira'no Atabekovna.** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA MUAMMOLARI..... 157
- 5 **O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich. Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich. Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich.** O'ZBEKISTONDA RAQAMLI FISKAL BOSHQARUV: DAVLAT BUDJETI SHAFFOFLIGI VA MOLIYAVIY NAZORAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI..... 163
- 6 **Pardayeva Ozoda Mamayunusovna.** TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR..... 168

TARIX

**Babadjanov B.
UrDU dotsenti.****“O‘ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARINING GENEALOGIYASI VA SIYOSIY-
G‘OYAVIY ASOSLARI”** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20707458>

ANNOTATSIYA: Maqolada mamlakatimizda siyosiy partiyalar rivojlanishining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish va tarixiy taraqqiyotga asoslanib, mumtaqillikka erishish yo‘lida ushbu sohadagi jarayonlarni har birini mamlakat tarixida o‘ziga xos rol o‘ynagan bosqichlarga bo‘linishi ifoda etilgan.

Kalit so‘zlar: Geneologiya, siyosiy g‘oya, partogenez jarayon, partogenez model, fenomen, jadidchilik, muxtoriyatchilik.

Аннотация: В статье отражена изучение теоретические и практические стороны развития политических партий в стране и основываясь на историческое развитие в пути к независимости которые сыграли своеобразный роль в разделении на части каждые процессы в этой области.

Ключевые слова: Генеология, политическая идея, партогенезный процесс, партогенезный модель, феномен, жадидизм, автономия.

Abstract: The article reflects the study of the theoretical and practical aspects of the development of political parties in the country and, based on historical development on the path toward independence, examines their distinctive role in the division and structuring of each process in this sphere.

Keywords: genealogy, political idea, parthenogenetic process, parthenogenetic model, phenomenon, Jadidism, autonomy.

Бу мавзуда Turkistonda siyosiy harakatlarning vujudga kelishi va siyosiy-g‘oyaviy asoslari o‘rganilganda tarixiy davrni ilmiy jihatdan tahlil qilish, uni idrok etish, muayyan siyosiy va ma‘naviy voqeligini baholash, har bir davr odamlari ruhiyati, ma‘naviy-axloqiy mezonlari, voqeahodisalarga munosabatini o‘rganish orqali siyosiy tarix mohiyatini ochish mumkin. Shu ma‘noda, o‘z davrida xalqimizning milliy ozodlik harakatlarini vujudga keltirgan siyosiy harakatlar va partiyaviy uyushmalar faoliyatlarini bir butun yaxlit tadqiq etish va uni zamonaviy siyosatshunoslik fani doirasida o‘rganish siyosiy voqelikning milliy tabiatini ochishga xizmat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nemis mumtoz siyosiy fan namoyondasi M. Veber Yevropa siyosiy partiyalarining genezisini uch bosqichdan iborat:

- partiyalar — aristokratik guruhlar,
- partiyalar — siyosiy klublar,

- partiyalar — zamonaviy ommaviy siyosiy tashkilotlar, deb hisoblaydi¹². Uning Yevropa siyosiy partiyalari genealogiyasiga doir yondashuv modeli orqali MTDPNing jadidchilik harakati namoyondalari tomonidan tashkil etilgan dastlabki ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va milliy tariximizdagi ilk siyosiy partiyalardan ommaviy siyosiy partiyaga aylanishi jarayoni hosilasi ekanligiga urgʻu berildi.

M. Veberdan keyin M. Dyuverje partogeneznining yanada chuqurroq talqinlarini, yaʼni partiyalarning yuzaga kelishining ikki yoʻli: birinchisi — “partiyalarning elektoral va parlamentar kelib chiqishi”ni “Genezisning umumiy mexanizmi oddiy: avvaliga parlament birlashmalari tuziladi, soʻngra saylov qoʻmitalari vujudga keladi; nihoyat, bu ikki tuzilma oʻrtasida doimiy aloqa oʻrnatiladi”, deb sharhlaydi. M. Dyuverje, partiyalar paydo boʻlishining “elektoral va parlament yoʻli”ning oʻzi partiyalarni tuzishning oʻzaro bogʻliq ikki variantini farqlaydi: birinchisi asosan elektoratga asoslanadi – unda joylardagi saylovchilar (umumiy saylov huquqi joriy etilgach) saylovchilarning tashabbuskor qoʻmitasini tuzib, u orqali siyosiy qarashlar umumiyliigi asosida oʻz nomlaridan (quyidan) parlamentga nomzodlar koʻrsatadi¹³. Ikkinchi ehtimoliy variantda esa parlament birlashmasi (yuqoridan) oʻz nomzodlarini saylovchilarning tashabbuskor qoʻmitalari orqali parlamentga oʻtkazib, soʻngra ular orasidan siyosiy partiyani shakllantiradi¹⁴. M. Dyuverje “Haqiqiy partiya vujudga kelishi uchun bir paytlar paydo boʻlgan ikki asoschi hujayra – parlament birlashmalari va saylov qoʻmitalarining doimiy muvofiqlashtirilishi hamda muntazam aloqalari kifoya edi”¹⁵ deb izohlaydi. Siyosiy partiyalarni shakllantirishning ikkinchi yoʻlini – M. Dyuverje “tashqi yoʻl” deb ataydi, fransuz siyosatshunosining fikricha, bu yoʻl bilan siyosiy partiyani jamiyatdagi juda koʻp sonli va turli-tuman birlashmalar yuzaga keltirishi mumkin. Partiya genezisining elektoral va parlament yoʻli demokratiya evolyusiyasining maʼlum bir bosqichiga xos boʻlib, bu bosqichda saylovchilar ommasi siyosiy jarayonlarga bosqichma-bosqich jalb etilishi umumiy saylov huquqi shakllanishi bilan bir vaqtda sodir boʻladi. Ikkinchi yoʻl – partiyalar genezisining tashqi yoʻli – yangi partiyalar paydo boʻlayotganda mavjud partiyaviy tuzilmalarning toʻsigʻiga duch kelgach yuzaga keladi, bu toʻsiqni yengib oʻtish uchun tarqoq mahalliy tashabbuslarning oʻzi kifoya qilmaydi, bunda manfaatdor jamoat birlashmalarining ishtiroki talab etiladi. Muallif tomonidan Oʻzbekistonda kechgan partogeneznining jarayoni jahon siyosiy fanida ustuvor boʻlgan partogeneznining modellari asosida tahlil qilib berilgan. Bu borada - “Oʻz mohiyat eʼtiboriga koʻra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen boʻlgan jadidlik gʻoyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida koʻplab tadqiqotlar yaratilgan boʻlsa-da, ushbu harakat namoyondalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy oʻziga xosligini, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qoʻshgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha oʻrganish dolzarb masala boʻlib qolmoqda”, deydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Mazkur ilmiy muammoning nazariy – metodologik dolzarbligi shundaki, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidlar harakati, siyosiy partiyalarning tashkil topishi, oʻlkada vujudga kelgan siyosiy vaziyat, ijtimoiy sharoit, siyosiy yetakchilar faoliyatining dasturiy asoslari, siyosiy kuchlarning hamkorlik faoliyati, xalqning siyosiy madaniyati, safarbarlik darajasi, diniy-ijtimoiy omillar haqida - faqat adabiyotshunoslik va tarix fanlari doirasida tadqiqotlar olib borilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston xalqlarining siyosiy madaniyatining oʻsishi bilan oʻlkada muxtoriyatchilik, hurriyat, ozodlik, jadidchilik va istiqloqlchilik harakatlarining vujudga kelishi va yagona gʻoyaviy maqsadlar atrofida jiplashuvi hamda yurt ozodligi yoʻlidagi kurashlarning avj olishi turli siyosiy partiyalarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Bu davrda Turkistonda siyosiy harakatlarning koʻtarilishiga turtki boʻlgan asosiy sabablaridan biri 1917-yili Rossiyada yuz bergan Fevral inqilobi boʻlib, u Turkistonda muhim siyosiy oʻzgarishlarni, xalqlarning muxtoriyat uchun kurashini, Turkistonda avvaldan mustahkam maʼnaviy-mafkuraviy

¹² Вебер М. Политика как призвание и профессия // Теория партий и партийных систем. М., 2008. –С.71-74

¹³ Дюверже М. Политические партии. М., 2000. –С.26–27

¹⁴ Джанджа К. Теория партий и дефиниции // Теория партий и партийных систем. М., 2008. –С.22

¹⁵ Дюверже М. Политические партии. М., 2000. –С.28

asoslarga ega bo'lgan jadidchilik harakatini va so'ngra uyushgan milliy siyosiy partiyalar faoliyatini boshlab berdi.

Bugungi dunyoda zamonaviy davlatchilik rivojlanishini siyosiy partiyalar faoliyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahon tajribasida nazariy tasdig'ini topgan siyosiy partiyalar ta'limoti va amaliyoti allaqachon davlatning mustahkam va barqaror rivojlanishi barometriga aylanib bo'lganligidan dalolat beradi. Ammo, muntazam ravishda o'sib kelayotgan inson manfaatlari, o'zgarib borayotgan zamon va makon qiyofasi, vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy tafovutlar va ziddiyatlar, yangi informatsion texnologiyalarning kirib kelishi har bir xalq oldiga tubdan yangi muammolarni ko'ndalang qo'ymoqda. Bu o'z navbatida partiyalar oldiga ham zamona talablariga javob bera oladigan siyosiy-mafkuraviy g'oyalarni ishlab chiqishni vazifasini qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti va uning yangi bosqichida qabul qilingan Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi jamiyatda demokratik jarayonlarni jadallashtirish va uni taboro chuqurlashtirish, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy hayotni rivojlantirish, fuqarolar siyosiy madaniyati va faolligini oshirish hamda barqaror rivojlanishini ta'minlash asoslari siyosiy partiyalarning huquqiy faoliyat maydonini kengaytib berdi. Siyosiy partiyalarning turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalash, o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etish imkoniyatlari belgilab berildi.

Siyosiy partiyalarni siyosiy-huquqiy hodisa sifatida o'rganish zamonaviy siyosatshunoslik fanining eng muhim va istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. O'zbekistonda ushbu tadqiqot sohasiga nazariy, uslubiy va amaliy qiziqish asosan mustaqillik davrida yangi demokratik, raqobatbardosh va plyuralistik partiyalar tizimini shakllantirish, siyosiy partiyalarni davlat hokimiyatini tashkil etish va amalga oshirish mexanizmining tarkibiy qismiga aylantirish orqali sezilarli darajada kuchaydi.

Mamlakatimizda siyosiy partiyalar rivojlanishining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish va tarixiy taraqqiyotga asoslanib, mustaqillikka erishish yo'lida ushbu sohadagi jarayonlarni har birini mamlakat tarixida o'ziga xos rol o'ynagan quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich-1987-1992-yillar. Ma'lumki, mustaqillikdan oldin so'zning to'liq ma'nosida siyosiy partiya va ko'ppartiyaviylik tizimi mavjud emas edi. Bu davr mustaqillikka erishish va milliy davlatchilik asoslarini vujudga keltirish borasida mustaqillikni ta'minlash, mustahkamlash, rivojlantirish g'oyalari bilan kuzatilgan turli qarashlar va siyosiy ixtiloflar oralig'ida kechdi.

Ikkinchi bosqich-1992-2000-yillar. Bu bosqich siyosiy tizim poydevorini yaratish bo'yicha faol va jiddiy ishlar davri bo'ldi. O'tish davrida odil va oqil hokimiyat xalq kayfiyatini, uning irodasini, milliy-tarixiy turmush tarzini, urf-odatlarini, an'analarini, fikrlash tarzini, aniq hisobga olgan holda xalqning iste'dodini jamiyatning siyosiy tuzilmalarini tashkil etish jarayoniga safarbar etdi.

Uchinchi bosqich - 2001-2012-yillar. Bu bosqichda barcha ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan eng muhim vazifa mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishi jarayonlarini yanada erkinlashtirishdir. Ushbu bosqichda quyidagilar belgilandi: mustaqil rivojlanishning to'plangan tajribasini tahlil qilish va umumlashtirish, rivojlangan davlatlarning davlat qurilishi va boshqaruvida bosib o'tgan yo'lini chuqur o'rganish, milliy tajriba bilan uyg'unlashgan ijobiy tajriba, shuningdek, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash konsepsiyasi.

To'rtinchi bosqich - 2012-yildan 2017-yilgacha. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi - "Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasi ushbu bosqich boshlanishiga asos bo'ldi.

Beshinchi bosqich - 2017-yildan hozirgi kungacha. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamlı islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Bugungi rivojlangan dunyoda siyosiy partiya mavjud bo'lmagan davlat borligini tasavvur qilish mushkul, deyarli barcha davlatlarda o'ziga xos partiyaviy tizim mavjud. Tamaddunning, jamiyatni boshqarishdagi eng muhim yutuqlaridan bo'lmish siyosiy partiya ijtimoiy hayotdagi demokratiya va barqarorlikni ta'minlashda asosiy omillardan biri bo'lib, u ijtimoiy tashkilotlar orasidagi eng siyosiy tashkilotdir.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Ustavida belgilangan maqsad va vazifalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qonuniy manfaatlarini va siyosiy irodasini ifoda etuvchi siyosiy tashkilot sifatida tashkil topgan. Partiya O'zbekistonni rivojlantirishning – Yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoti, Xalq farovonligi, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" – umummilliy g'oyalari atrofida butun jamiyatni jipslashtirishga asoslangan yo'lini qo'llab-quvvatlaydi. Bu g'oya O'zbekistonning dunyodagi o'rni va roli, davlatning taktik va strategik maqsadlari va vazifalari, uning yangi xalqaro sharoitlarda hamda geosiyosiy voqealarda milliy manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish borasidagi amaliy qadamlarini fuqarolar tomonidan to'g'ri idrok etish va anglashiga asoslanadi. Partiyaning tashkiliy-huquqiy shakli jamoat birlashmasi bo'lib, u jamiyatning turli guruhlari va qatlamlariga mansub bo'lgan, milliy manfaatlar va qadriyatlarni ustuvor qo'ygan hamda milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlashda, demokratik huquqiy davlat barpo etishda, yurtning gullab-yashnashini ta'minlash hamda xalq farovonligini oshirishda ongli va mas'uliyatli tarzda ishtirok etuvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini ixtiyoriy asosda birlashtiradi. O'tgan besh yillik malumotga ko'ra, (2024-yil) partiya 762 000 nafar a'zolari, doimiy elektorati va tarafdorlariga ega bo'lgan siyosiy kuch sifatida jamiyat hayotida o'z o'rnini egalladi.

Muayyan vaqt o'tishi bilan O'zbekiston ko'ppartiyaviylik tizimidagi muhim yangiliklardan biri – siyosiy partiyalarning davr talabi, ijtimoiy – siyosiy vaziyat talablaridan kelib chiqib, birlari bilan birlashishlari tabiiy jarayonga aylandi. 2008-yil 20-iyunda O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi (O'zMTDP) O'zbekiston "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi (FMDP) qo'shma syezdida birlashish jarayoni yuz berdi va yangi partiya O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi nomini oldi.

Demak, 1995-yildan, ya'ni partiya tashkil topgan vaqtdan beri oradan o'tgan 30-yilga yaqin davr davomida mamlakatimizning siyosiy hayotida jamiyatni demokratlashtirish borasida bir qancha jiddiy islohotlar amalga oshirildi. 2004-yil parlament va mahalliy vakillik organlariga bo'lgan saylovlarda parlamentning quyi palatasi – Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqining siyosiy partiyalarga berilishi, mahalliy vakillik organlaridan parlament va mahalliy kengashlar deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqini bekor qilinishi munosabati bilan partiyalarning qonun chiqaruvchi hokimiyatni shakllantirish sohasidagi yangi davri boshlandi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбек Миллий Энциклопедияси. 7-том. Т. "ЎМЭ"
2. Жумаев Р. Политическая система Республики Узбекистон: становление и развитие. Т. "Фан", 1996 й.
3. Саидов А. "Жадидларнинг давлат ва ҳуқуқ ҳақидаги қарашлари". "Жадид" газетаси, 2024 й. 44-сон.
4. Маткаримов М., Маткаримова С., Бекмухаммедов У. "Ёш Хиваликлар"нинг Республика давридаги фаолияти. Монография. "Дурдона", 2024 й.
5. Эргашева М. "Туркистон, Бухоро ва Хива жадидларининг давлат ва ҳуқуқ ҳақидаги қарашлари". Т. "Ўзб Рес. Жамоат хавф. Унв. 2003 й.

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].